

LANDSHAFTSHUNOSLIK FANINING TABIIY GEOGRAFIYA FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI VA TASNIFI

Murtazayeva Sarvinoz Zoyirjon qizi²⁷

Annotatsiya: *Ushbu maqolada landshaftshunoslik fanining tabiiy geografiya fanlar tizimidagi tutgan o'rni, uning boshqa tabiiy-geografik fanlar bilan o'zaro munosabati hamda ilmiy tasnifi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda landshaftshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanish tarixi, uning ob'ekti va predmeti aniqlanib, tabiiy geografiya tarkibidagi o'ziga xos ilmiy maqomi asoslab berilgan. Maqolada landshaftshunoslikning geomorfologiya, iqlimologiya, gidrologiya, tuproqshunoslik va biogeografiya kabi fanlar bilan funksional bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, landshaft tushunchasining turli ilmiy maktablar — xususan, rus, nemis va ingliz-amerikan geografiya maktablari — tomonidan talqin etilishi qiyosiy tarzda o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *landshaftshunoslik, tabiiy geografiya, landshaft tasnifi, geotizim, geografik qobiq, morfologik birliklar, antropogen landshaft, fizik-geografik rayonlashtirish.*

Aksariyat tadqiqotchilar geografiya fanining tarixiy taraqqiyoti davomida uning ichki tuzilishi murakkablashib, fanlararo farqlanish (differensiallashuv) jarayoni natijasida geografik fanlar tizimi shakllanganligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Geografik fanlar majmuasining tuzilishi, unda landshaftshunoslikning metodologik va tizimiy o'rni masalalari S.V. Kalesnik (1955, 1959, 1961, 1972), I.M. Zabelin (1957, 1959, 1978), Yu.G. Saushkin (1959, 1976), F.N. Mil'kov (1959, 1970, 1990), A.M. Ryabchikov (1964), Yu.K. Efremov (1964, 1987), P.S. Kuznetsov (1970), K.K. Markov (1973, 1978), V.B. Sochava (1978), D.L. Armand (1979), A.G. Isachenko (1979, 2004), B.N. Semevskiy (1981), U.I. Mereste va S.Ya. Nymmik (1984), N.K. Mukitanov (1985), V.S. Zhekulin (1989), Sh.S. Zokirov (1999), A. Abdulqosimov (2017), I.Q. Nazarov (2013), A.A. Nigmatov (2006, 2018), O'.Q. Abdunazarov, M.T. Mirakmalov, Sh.M. Sharipov, R.A. Ibragimova, A.A. Ibragimova (2018), H.R. Toshov (2021)larning ilmiy ishlarida turlicha yondashuvlar bilan yoritilgan.

Shuni qayd etish joizki, geografik fanlar tizimi bo'yicha fikr yuritgan yuqoridagi mualliflarning tadqiqotlarida bir qator o'zaro zid, bahs-munozaraga sabab bo'ladigan nazariy qarashlar ham mavjud. Ayniqsa, tabiiy geografiya va iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasida ushbu kelishmovchiliklar yaqqol sezilgan. Bu masalani ilmiy nuqtayi nazardan hal etish jarayonida ikki asosiy kontseptual yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuvda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi qonunlar faqat ijtimoiy jarayonlarga xos bo'lib, tabiat qonunlarining jamiyat hayotiga ta'siri yetarlicha e'tiborga olinmagandi.

Ikkinchi yondashuvda esa tabiat va jamiyat o'rtasidagi sifat jihatidan farqlanuvchi qonuniyatlar inobatga olinmay, go'yoki jamiyatda ham faqat tabiat qonunlari amal

²⁷ JDPU 2 – bosqich magistranti

qiladi degan g'oya ilgari surilgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, bunday qarashlar deterministik maktabning shakllanishiga olib kelgan.

Mazkur ikki qarashning har ikkisi ham dialektik-materialistik yondashuvning fundamental talablariga zid bo'lib, tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri, ularning tarixiy rivojlanishda o'zaro bog'liqligi, tabiiy jarayonlar bilan antropogen omillar o'rtasidagi kompleks munosabatlar yetarli darajada hisobga olinmagan. Ayni paytda ilmiy-texnika taraqqiyoti kuchaygan sari tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar yanada murakkablashdi va ularni bir-biridan ajratib o'rganish ilmiy jihatdan noto'g'ri, hatto xavfli ekanligi tobora yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Bu jarayon ekologik muammolarning kuchayishi, ekologik tanazzul tushunchasining paydo bo'lishi bilan ham isbotlandi.

Tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlari o'rtasida sifat farqlari mavjudligini tan olish fanlarning dastlab ikkita yirik guruhga – tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlarga ajralishiga olib keldi. Bu holat eng ravshan tarzda geografiya fanida sezildi. Chunki tabiiy geografiya tabiatning qonuniyatlarini o'rganadigan tabiiy fanlar doirasiga kirgan bo'lsa, iqtisodiy geografiya jamiyat hodisalarini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning hududiy xususiyatlarini o'rganadigan ijtimoiy fan sifatida shakllandi. Ular o'rtasidagi bu asosiy sifat farqlarini hisobga olmasdan turib geografiyani yagona yaxlit fan sifatida baholash metodologik xatoliklarga sabab bo'lishi tabiiy edi. Geografik fanlar tizimini to'g'ri anglash uchun turli mualliflar tomonidan taklif etilgan tasnif sxemalarini solishtirish juda muhim. O'zbekistonlik olimlar – I.Q. Nazarov (2013), A. Nigmatov (2018) va H.R. Toshov (2021)larning darslik va monografiyalarida geografik fanlarning tasnifi va ularni shakllantiruvchi mezonlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan [107, 114, 148]. Biz ham landshaftshunoslik fanining rivojlanishida tasniflashning muhim metodologik omil ekanini inobatga olib, mavjud tasnif variantlarini qayta tahlil qilishni zarur deb topdik.

Geografik fanlar tasnifi bo'yicha nisbatan mukammalroq sxemalardan birini S.V. Kalesnik 1959-yilda taklif etgan. U geografieyani o'zaro uzviy bog'langan tabiiy va ijtimoiy fanlar majmuasi sifatida talqin qilgan. Keyinchalik, 1972-yildagi ishlari davomida Kalesnik o'z tasnifini kengaytirgan va uni alohida nazariy maqola sifatida e'lon qilgan. Olimning ta'rifiga ko'ra, geografik fanlar tizimida avvalo to'rt asosiy guruh ajratiladi: a) tabiiy-geografik fanlar; b) ijtimoiy-geografik fanlar; c) kartografiya va geoinformatika yo'nalishlari; d) integrallashgan geografik fanlar. Mazkur guruhlarni batafsil ifodalash maqsadida ularni quyida tizimli ko'rinishda aks ettirish maqsadga muvofiqdir (1 – jadval).

1- jadval

Geografik fanlar sistemasi

Tabiiy geografik fanlar	Ijtimoiy geografik fanlar	Kartografiya	Birlashtirilgan fanlar
1.Geomorfologiya	11. Geografiya	14. Kartografiya	18. Mamlakatshunosli

2. Iqlimshunoslik	tarixi	15. Topografiya	k
3. Okeanologiya	12. Toponimika	16. Geoinformatika	19. O'lkashunoslik
4. Quruqlik gidrologiyasi	13. Iqtisodiy geografiya	17. Geografik axborot tizimlari	20. Harbiy geografiya
5. Glyatsalogiya			21. Tibbiyot geografiyas
6. Geokriologiya			
7. Tuproqlar geografiyasi			
8. Biogeografiya			
9. Fenologiya			
10. Tabiiy geografiya			

Jadvalda sanab o'tilgan 21 ta fanning har birining o'zining tadqiqot obyekti bo'lib, fanni har tomonlama mukammal o'rganish uchun istagan metodlardan foydalanish mumkinligini, har bir geografik fanning umumiy, nazariy, regional hamda amali qismlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan.

Jadvalda keltirilgan har bir fan tarmog'i o'z navbatida yana bir qator ixtisoslashgan fanlarga bo'linishi mumkinligi ham ta'kidlangan. Xususan, tabiiy geografiya fanining o'zi mazmun va vazifalariga ko'ra bir nechta mustaqil yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.


Jumladan, u umumiy yer bilimi (ya'ni Yer haqidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganuvchi fan), regional tabiiy geografiya yoki landshaftshunoslik (alohida hududlarning tabiiy-geografik majmualarini tahlil qiluvchi yo'nalish), paleogeografiya (Yer tabiatining o'tmishdagi holatini va rivojlanish bosqichlarini o'rganuvchi fan), shuningdek fenologiya (landshaftlarning fasliy va yillik ritmikasini, ya'ni tabiiy jarayonlarning mavsumiy o'zgarishlarini tadqiq etuvchi ta'limot) kabi sohalarga ajratilishi mumkin. Ayniqsa, landshaftshunoslik tabiiy geografiya tizimida muhim o'rin egallab, tabiiy komponentlarning o'zaro bog'liqligi, hududiy birliklar shakllanishi va ularning ichki tuzilishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks fan sifatida shakllangan.

Bu fan geografik qobiqdagi tabiiy tizimlarning yaxlit holatda rivojlanishini ochib berishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.


Taniqli geograf olim K.K. Markov tomonidan taklif etilgan tabiiy geografiya fanlar tizimi tasnifida ham landshaftshunoslikka alohida o'rin berilgan.

Ushbu tasnifga ko'ra, landshaftshunoslik umumiy geografik qonuniyatlar bilan aniq hududiy tabiiy majmualar o'rtasida bog'lovchi zveno vazifasini bajaradi.

Markov tomonidan ishlab chiqilgan mazkur tasnifda landshaftshunoslikning tabiiy geografiya fanlari tizimidagi o'rnini quyidagi 1-rasm orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin.



1 – rasm. Tabiiy geografiya tasnifida landshaftshunoslikning o‘rni (K.K.Markov bo‘yicha, 1960)



2 – rasm. Landshaftshunoslikning tabiiy geografik fanlar tasnifidagi o‘rni (N.A.Gvozdetzkiy bo‘yicha, 1979)

I.Q. Nazarovning (2013) “Geografiya fanining asosiy muammolari” nomli o‘quv qo‘llanmasi, A.A. Nigmatovning (2018) “Tabiiy geografiya va geoekologiya nazariyasi” nomli monografiyasi, shuningdek, O.Q. Abdunazarov va boshqalar tomonidan (2018) tayyorlangan “Umumiy tabiiy geografiya” darsligida geografiya fanlari tasnifi, ularning

o'zaro ichki tuzilishi hamda landshaftshunoslikning ushbu tizimdagi ilmiy o'rni haqida muhim ilmiy fikrlar bayon qilingan.

A.A. Nigmatovning (2018) "Tabiiy geografiya va geoekologiya nazariyasi" monografiyasida tabiiy geografik fanlarni uchta yirik guruhga — kompleks, tarmoqli (yoki sohaviy) va amaliy-sintetik yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiq ekanligi e'tirof etiladi. Bu tasnif tabiiy geografiyaning nafaqat nazariy, balki metodologik asoslarini ham aniq belgilab beradi.

Yuqoridagi tasniflarni tahlil qilganda, sobiq ittifoq davrida geografiya fanining tabiati borasida ikki qarama-qarshi yondashuv mavjud bo'lganini ko'rish mumkin. Tabiiy geografiya vakili S.V. Kalesnikning fikricha, bir vaqtlar yaxlit bo'lgan geografiya keyinchalik ikki mustaqil fan — tabiiy geografiya va iqtisodiy geografiyaga ajralib ketgan. Bu fikrni iqtisodiy geograflar M.M. Jirmunskiy (1951), F.V. Konstantinov (1964), hamda tabiiy geograf olimlar A.G. Isachenko (1979) va I.M. Zabelin (1957, 1959, 1978) qo'llab-quvvatlagan.

Ayniqsa, I.M. Zabelin geografiya fanining "bir butun holatda yashab bo'lganini" va endilikda geografiyaning ikki alohida mustaqil fan sifatida mavjudligini qat'iyat bilan ta'kidlagan. U 1957 yilda chop etilgan "Osnovnye problemy teorii fizicheskoy geografii" asarida geografiya bir butun sifatida endi ilmiy ahamiyatini yo'qotganini e'lon qilgan.

I.Q. Nazarov o'zining mazkur qo'llanmasida zamonaviy geografiya fani 20 dan ortiq yo'nalish va mustaqil ilmiy tarmoqlardan tashkil topgan murakkab fanlar tizimidan iborat ekanini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv geografiya fanining keng qamrovli, ko'p komponentli va murakkab integrativ tuzilishga ega ekanini ko'rsatadi.

Biroq barcha olimlar bu fikrni qo'llab-quvvatlamagan. A.M. Ryabchikov (1960) o'z pozitsiyasini juda qisqa, ammo aniq bayon qilib, geografiya aslida kompleks fan bo'lib, insoniyat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan landshaft sferasini tadqiq etishi sababli geografiya fanini ikkiga bo'lib bo'lmasligini asoslagan. Uning fikricha: landshaft sferasi inson yashaydigan geografik muhitni tashkil qiladi; jamiyat va tabiat o'zaro ajralmas holda rivojlanadi; shuning uchun geografiya ham tabiiy, ham ijtimoiy jarayonlarni o'rganishi zarur.

Shuningdek, N.N. Baranskiy, N.N. Kolosovskiy, Yu.G. Saushkin, Yu.K. Efremov va V.A. Anuchin kabi yirik olimlar ham geografiyaning bir butun fan sifatida mavjudligini ilmiy asoslashga harakat qilganlar.

Ayniqsa, V.A. Anuchin (1960, 1972) geografiyani yagona tadqiqot obyekti — Yerning landshaft qobig'ini o'rganuvchi kompleks fan sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, geografiya ichidagi bo'linishlar nisbiydir. Asosiy birlikni esa umumiy metodologiya va yagona tadqiqot obyekti belgilaydi. Anuchinning ta'kidlashicha: Tabiiy geografiya — landshaft qobig'idagi tabiiy geokomplekslarni va ularda inson faoliyati ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'rganadi. Iqtisodiy geografiya — hududiy ishlab chiqarish tizimlari va ularning hududiy tashkil etilishini tadqiq etadi. Demak, biri tabiiy fanlar tizimiga, ikkinchisi ijtimoiy fanlarga yaqin turadi. Ularning farqlari mavjud bo'lsada, ularni yagona obyekt — geografik muhit birlashtiradi.

Y.G. Saushkinning fikri ham bu mazmunga yaqin: tabiiy muhitni tabiiy geografiya alohida o'rgana oladi, biroq geografik muhitni — ya'ni inson faoliyati bilan murakkab bog'langan makonni — faqat tabiiy va ijtimoiy geografiya birgalikda tadqiq qilishi mumkin.

O'Q. Abdunazarov, M.T. Mirakmalov, Sh.M. Sharipov, R.A. Ibragimova va A.A. Ibragimovlar tomonidan yaratilgan "Umumiy tabiiy geografiya" (2018) darsligida geografik fanlar: tabiiy geografiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, kartografiya, mamlakatshunoslik, maxsus (oraliq) fanlar kabi besh yirik guruhga ajratilgan. Tabiiy geografiya esa o'z navbatida umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya, xususiy tabiiy geografik fanlarga bo'linadi.

MDH maktabining yirik landshaftshunos olimi A. Abdulqosimov landshaftshunoslikning barcha yo'nalishlari maxsus ilmiy tamoyillar va metodologik asoslar bilan birgalikda rivojlanishini ta'kidlagan. U landshaftshunoslik tuzilishini tizimli holda aks ettiruvchi maxsus sxemani taklif etgan.

A. Abdulqosimov, Yu. Abdurahmonova va Q. Davronovlar (2017) larnadshaftshunoslikning o'ta keng, ko'p bosqichli tadqiqot maydonini hisobga olib uni uch asosiy bo'limga bo'lganlar:

1. Landshaft sferasining global va regional differensiasiya qonuniyatlari
 2. Landshaft haqidagi ta'limot, landshaftlarni klassifikatsiya qilish, kartalashtirish va landshaft ekologiyasi
 3. Tabiiy geografik va landshaft-ekologik (geoekologik) rayonlashtirish
- 2 – jadval

Landshafshunoslik va uning tarmoqlanishi (A.Abulqosimov bo'yicha, 2017)

Landshaftshunoslik nazariyasi	Antropogen landshaftshunoslik	Landshaft kartalashtirish
Tibbiy landshaftshunoslik	Agrolandshaftshunoslik	Landshaft rayonlashtirish
Landshaft geografiyasi	Sanoat landshaftshunosligi	Landshaft prognozlash
Regional landshaftshunoslik	Chiziqli landshaftshunosligi yo'l	Meliorativ landshaftshunosligi
Eksperimental landshaftshunoslik	O'rmon antropogen landshaftshunosligi	Texnogen landshaftshunoslik
Landshaft geokimyosi	Suv antropogen landshaftshunosligi	Landshaft ekologiyasi
Landshaft geofizikasi	Rekreasion landshaftshunoslik	Tibbiy landshaftshunoslik
Landshaft kadastri	Seliteb landshaftshunoslik	Tibbiy geoekologik rayonlashtirish
Landshaft arxitekturasi	Belligerativ landshaftshunoslik	Landshaft morfologiyasi
Landshaft haqidagi ta'limot		
Karst landshafti		

Taniqli landshaftshunos A.G. Isachenko o'zining "Landshaftovedenie i fiziko-geograficheskoe rayonirovanie" (1991) asarida landshaftshunoslikni tabiiy geografiya fanlari tizimining asosiy bo'g'ini sifatida talqin qilib, u boshqa barcha tabiiy-geografik

fanlarni birlashtiruvchi, integratsiyalovchi markaziy tizim ekanini alohida urg'ulagan. Uning ta'kidlashicha, landshaftshunoslik geografik komplekslarni o'rganishda tizimli yondashuvning ilmiy asosini yaratadi. Shunga qaramay, landshaftshunoslikning geografiya fanlari ichidagi o'rni, ilmiy ahamiyati va tadqiqot yo'nalishlari hali-hanuz turlicha talqinlarga sabab bo'lib kelmoqda. O'zbekistonlik olimlar — A. Abdulqosimov, Sh.S. Zokirov, I.Q. Nazarov, S.B. Abbasov, A. Rahmatullaev, A. Nigmatov, X.R. Toshov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida landshaftshunoslikning nazariy-metodik asoslari, amaliy qo'llanilishi va uning geotizim sifatidagi mavqeiga oid yondashuvlar hamda qarashlar turlicha baholangan.

Xulosa o'rnida landshaftshunoslik tabiiy geografiyaning sintezlovchi tarmog'i sifatida barcha komponent fanlarni birlashtiruvchi metodologik asos ekanligi isbotlangan va fanning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adilova, O. A. (2021). Problems of Protection and Reproduction of Trees and Bushes in Mountain Conditions of the Middle Zerafshan Valley. Nature and Science. USA, 19, 13-17.

2. Адилова, О. А. (2021). Чўлланиш жараёнини ўрганиш бўйича тадқиқот усуллар. Журнал естественных наук, 1(4).

3. Адилова, О. А. (2021). КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПРОЦЕССА ОПУСТЫНОВАНИЯ В ГОРНЫХ И ПРЕДГОРНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ (на примере Губдинтау). Экономика и социум, (4-1), 550-556.

4. Alimov Z.A. Tabiatni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2020 y

5. Berdiyev A.X., Xolmatov A.I. Tabiiy landshaftlar ekologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2021 y

6. Исаченко А.Г. Ландшафтоvedеные и физико-географическое раёнирование //Москва, 1991.-С.66

7. Mo'minov D. G', Karimqulova M. Tabiiy landshaftlardan foydalanishning geoekologik jihatlari. "Geografiya fanining dolzarb masalalari: iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 142-146 b. 23-24 may, 2025

8. Ergasheva M.K. Landshaftshunoslik va uning O'zbekistonda rivojlanishi. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2022